

Ilhombayeva Mahliyo Umidjon qizi
UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi
mahliyoilhombayeva@gmail.com

TOHIR MALIKNING “SHAYTANAT” ASARIDAGI AYRIM LAQABLAR TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malik asarlarida keltirilgan ayrim laqablar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: antroponomim, badiiy asar, laqab, lingvopaeatika, etimolgiya.

Аннотация: В данной статье анализируются некоторые прозвища, упомянутые в произведениях Тахира Малика.

Ключевые слова: антропоним, художественное произведение, прозвище, лингвопатика, этимология .

Annotation: In this article, some nicknames mentioned in the works of Tahir Malik are analyzed.

Key words: anthroponym, artistic work, nickname, linguopaeatics, etymology.

Badiiy asarlarda ham qahramonlarga nom tanlash birmuncha mulohaza talab qiladi. Ba’zi asarlarda qahramon ismi asarda ifodalanayotgan g’oyani ochib berishda muhim vosita sanaladi. Chunki badiiy asarda qo‘llanilgan ayrim ismlar yozuvchining badiiy-estetik niyatini aniqlashga yordam beradi. O‘zbek adabiyotida personaj xarakter-xususiyatini ochib beruvchi, tagma’noli kulgi yaratuvchi ismlar Tohir Malik, Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Said Ahmad va boshqa yozuvchilar-ning hajviy asarlarida juda ko‘p uchraydi. Mahoratli yozuvchilarimiz qahramonning hayoti, taqdiri va ruhiyati bilan uning ismi o‘rtasida mushtaraklik o‘rnatish orqali betakror obrazlar yaratishga harakat qiladilar.¹

Ismlar qatorida laqablar ham badiiy asarlarda qo‘llanishi mumkin. Ism, laqab va taxalluslar biror alohida olingan shaxsni boshqa shaxslardan ajratish, farqlash ehtiyoji tufayli yaratilgan. Laqab – biror xususiyatiga ko‘ra, kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo‘shimcha nom. Shuningdek, ma’lum maqsadda o‘zgartirib olingan nom ham laqab hisoblanadi. Badiiy asarlarda ham turli maqsadlarda kishi nomiga qo‘shib ishlatiladi yoki laqabning o‘zi qo‘llanishi mumkin. Albatta, laqablarning qahramon xarakterini ochib beruvchi vosita sifatida asar g’oyasi bilan bog‘liq jihatlari ham bo‘lishi mumkin.

Taniqli o‘zbek yozuvchisi, o‘zbek adabiy fantastikasining asoschilaridan biri Tohir Malik ham o‘zining “Shaytanat” asarida qahramonlarda laqab qo‘yish orqali ularning ayrim xususiyatlarini ochib bergan. Shulardan ayrimlarini tahlil qilib o‘tsak.

Asardagi epizodik obrazlardan biri **Bo‘tqa** videobar egasi Kenjaning laqabi. U Asadbek kirib ketgach, joyiga borib o‘tirmay, eshik og‘zida turgan edi. Xo‘jayinning qahrli ovozi eshitgach, shoshilib kirdi.²

¹ M. Yo‘ldoshev, Z. Isaqov, Sh. Haydarov. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., 2010, 49-bet.

² Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “O‘ME”, 2018. 414 bet.: 74.]

Bilamizki, bo‘tqa laqabini eshitganda har bir odamning tasavvurida ovqat ya‘ni yegulik nomi gavdalanadi. Haqiqatan ham shunday. Bu insonga bu laqabning berilishi ham bejiz emas. Ko‘rinishi to‘ladan kelgan, barvasta kishiga bu laqab juda mos tushgan. Hayotning lazzatini ovqatdan topgan bu obraz o‘zi Asadbekning yaqin xizmatchilaridan.

Bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi “suyuq, quyuq yoki maydalangan taom, suv yoki sutda qaynatilgan don, pishirilgan don yoki undan tayyorlanadigan taom” deb izohlanadi. Bundan tashqari ilgari Rossiyada bu dehqonlar hayotidagi asosiy taomlardan biri edi³ deyiladi .

...**Shilimshiq** deb laqab olgan Jalolni avval daraxtga bo‘ynidan bog‘ladilar... Elchinning tanobini tortib qo‘yishni Asadbekning o‘zi buyurgan edi. Tanobini sal qattiqroq tortibdi., shunga shunchami? Ha, endi qaymoqday nartsa ekan, to‘yib yemasa ham yalab ko‘rishi kerakmidi? Xotinni qimorda halol yutib olganidan keyin xushiga kelganini qiladi-da!⁴

Asardan parchada keltirilganidek fe‘l-atvori aysh-u ishrat, maishatga moyil bo‘lgan odamga bu laqab atab qo‘yilgandek mos tushgan. Shilimshiq bosh qahramonlardan biri elchinning xotinini zo‘rlab o‘ldiradi. Bu ishni oldin ham bir necha bor qilganligi uchun Asadbek bu ishni aynan unga topshiradi. Bunda ko‘rinadiki ayollarga suyagi yo‘q bo‘lgan bu kimsa aynan shu laqab bilan atalishi kerak.

So‘z etimologiyasi jihatdan esa, Shilimshiq yelim singari yumshoq va yopishqoq. Lekin Elchibekning hafsalasi pir; iflos, shilimshiq bir narsa yeb qo‘ygandek, ta‘bi tirrih edi (Asqad Muxtor). Bu sifatni o‘zbek tilidagi shilliq, shilqim so‘zlari bilan qiyoslashdan ko‘rinadiki, ular uchun asos vazifasini shil – qismi bajargan; lekin lug‘atlarda bunday fe‘l o‘z aksini topmagan. Aslida bu fe‘l yelimsimon modda hosil qilish ma‘nosini anglatgan bo‘lsa kerak. Shilimshiq sifati ana shu shil fe‘liga – (i)m qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan otdan –shi qo‘shimchasi bilan yasalgan fe‘lga -q qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan; keyinchalik i unlilarining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: [(shil + im = shilim) + shi = shil-im-shi] + q = shilimshiq > shilimshiq.⁵

Asarning bosh qahramoni, Zelixonning laqabi “**akademik**” edi. Bunga sabab – u puxta o‘ylab, so‘ng ishga kirishardi. Uning boshqalardan farqi – odamlar ruhiyatini albatta hisobga olardi. Lozim bo‘lganda katta idoralarga boshqa bir idora boshlig‘iday bemalol kirib chiqaverardi. Eshik og‘zidagi soqchiga kiborlik bilan so‘z tashlab, “ha, o‘tiribsanmi” deb kirib ketaverardi⁶.

Akademik — ayrim mamlakatlarda yuksak ilmiy unvon. O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va O‘zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasida akademiklar saylanadi. Akaemiklik unvoni O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi, O‘zbekiston respublikasi Badiiy akademiyasi va boshqa ilmiy hamda o‘quv muassasalarining olim va ijodkorlari, shuningdek ayrim shaxslarga beriladi.⁷

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bo%27tqa>

⁴ Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “O‘ME”, 2018. 414 bet.: 202.

⁵ O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (I-jild)

⁶ Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “O‘ME”, 2018. 414 bet.: 96

⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Akademik#O%E2%80%98zbekiston_Respublikasi_Badiiy_akademiyasi

Bu soʻz oʻzbek tilining izohli lugʻatida “Fanlar akademiyasining haqiqiy aʼzosi; biror akademiyaning aʼziligiga saylangan olim, adib, rassom, haykaltarosh va sh.k.ning unvoni” deb izohlanadi.⁸

Bundan tashqari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi faoliyatini erkinlashtirish va samarali rivojlanishini taʼminlash toʻgʻrisidagi qarori ham qabul qilingan. “Fanlar akademiyasi Umumiy majlisining mamlakatimizda muxbir aʼzolik institutini tugatish, Akademiyaning mavjud muxbir aʼzolik institutini tugatish, Akademiyaning mavjud muxbir aʼzolari Fanlar akademiyasining haqiqiy aʼziligiga saylangani va ularga akademik unvonini berish haqidagi qarori eʼtiborga olinsin”.⁹

Navbatdagi obrazimiz, “Karim Toʻqsonovich” degan ism, garchi mullalikka daxldor boʻlmasa-da, “**Qarimulla**” deb oʻzgartirildi. Bu “mulla” xotirasi zaifligi tufayli toʻrt oy badalida “oyatal kursi”ni yod ololmay, ikkita kichik sura bilan tirikchilik qiladi. Xonaqoh poydevoriga qoʻyilgan kunlari oʻstira boshlagan “soqol-moʻylab” imorat tomi yopilbdiki, hali bir enlikdan oʻtgani yoʻq.¹⁰

Aslida mullalikdan umuman xabari boʻlmagan bu qahramonga “Qarimulla” laqabi kinoya tarzida qoʻyilgan. Parchada keltirilganidek ikkita kichik sura bilan “mulla” laqabini oladi-qoʻyadi.

Ancha yoshga borgan, qartaygan; keksa maʼnosini anglatuvchi qari soʻzi mulla - Oʻrta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida Madrasa taʼlimini olgan shaxs; din arbobi, ulamo maʼnosini anglatuvchi soʻz bilan qoʻshilib qoʻllangan. Ikkalasi umumiy bir maʼnoda keksa din arbobi tushunchasini ifodalagan. Asardagi qahramonni feʼl-atvoridan kelib chiqib aytadigan boʻlsak uning qiladigan ishlariga bu nom birmuncha mos emas. Shunday ekan bu laqab qahramonga kinoya yoʻsinida, kesatq tarzda berilgan.

Asarning yana bir obrazi, Sobitxon yalt etib notanish mezbonga qaradi. “Qori aka”, “**Xojiqori aka**”, “Domlajon”, “Taqsim” degan murojaatlarga koʻnikkani uchun oʻzidan ikki-uch yosh katta odamning “birodar” deyishi unga erish tuyuldi.¹¹

Yuqorida taʼkidlangan “Qarimulla”dan farqli oʻlaroq mullalik faoliyatini yaxshi biladigan bu qahramonga bu laqab bejiz berilmagan. Mullalikni ikir-chikirigacha bilar hamda qorilar ichidan uning ovozidan yaxshi ovoz topilmas edi. Shuning uchun ham biror maraka-tadbirlarga deyarli koʻpchilik uni chaqirar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Yoʻldoshev, Z.Isaqov, Sh.Haydarov. Badiiy matnning lisoniy tahlili. T., 2010, 49-bet.
2. Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “OʻME”, 2018. 414 bet.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bo%27tqa>
4. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati (I-jild)
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Akademik#O%E2%80%98zbekiston_Respublikasi_Badiiy_akademiyasi

⁸ <https://izoh.uz/word/akademik>

⁹ <https://lex.uz/docs/-352404?ONDATE=09.06.2000>

¹⁰Tohir Malik Shaytanat (1-kitob). – Toshkent: “OʻME”, 2018. 414 bet...: 137

¹¹ Oʻsha manba 171-bet.

6. <https://izoh.uz/word/akademik>
7. <https://lex.uz/docs/-352404?ONDATE=09.06.2000>